

“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi Statistika
agentligi direktori o‘rinbosari



Z. Ziyayev

2024-y. “27” iyun

INTERAKTIV XIZMATINING REGLAMENTI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA
AGENTLIGINING RASMIY VEB-SAYTIDA “O‘ZBEKISTON RAQAMLARDA”
BO‘LIMIDA RASMIY STATISTIKA INDIKATORLARIDAN FOYDALANISH
INTERAKTIV XIZMATINI TAQDIM ETILISHI.**

1. Xizmatning ta’rifi (pasport)

1.1. Xizmat nomi

Statistika agentligining rasmiy veb-saytida “O‘zbekiston raqamlarda” bo‘limida rasmiy statistika indikatorlaridan foydalanish interaktiv xizmatini taqdim etilishi.

1.2. Xizmat natijasi

Muayyan davrlar uchun O‘zbekiston Respublikasi va iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlarining o‘sish sur’atlari haqida axborot.

1.3. Xizmat ko‘rsatish organlari va blankalarini olish joylari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy veb-sayti, Qoraqolpog‘iston Respublikasi Statistika boshqarmasi, viloyatlar va Toshkent shahar Statistika boshqarmalari rasmiy veb-saytlari.

1.4. Huquqiy asoslar

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagи “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori.

1.4.Xizmat qabul qiluvchilari

Manfaatdor davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar.

1.5. So‘rov berish muddatlari

So‘rov berish muddati o‘rnatilmagan.

1.6. Bajarilish muddati

Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy veb-saytiga, Qoraqolpog‘iston Respublikasi Statistika boshqarmasi, viloyatlar va Toshkent shahar Statistika boshqarmalari rasmiy veb-saytlariga murojaat qilinganda – onlayn rejimda.

1.7. Tasdiq berilish muddati

O'rnatilmagan.

2. Xizmat qabul qiluvchilarini habardor qilish

2.1. Axborot tarkibi va hajmi

O'zbekiston Respublikasi va uning hududlari, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari:

- Yalpi ichki mahsulot;
- Sanoat;
- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi;
- Asosiy kapitalga investitsiyalar;
- Qurilish ishlari;
- Yuk aylanmasi;
- Yo'lovchi aylanmasi;
- Chakana tovar aylanmasi;
- Xizmatlar;
- Doimiy aholi soni.

2.2. Katta miqyosda xabardor qilish

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari o'sish sur'atlari Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytining "O'zbekiston raqamlarda" bo'limida e'lon qilib boriladi.

2.3. So'rov bo'yicha xabardor qilish

Shaxsan: 9-00 dan 18-00 gacha xizmat bo'yicha har qanday savol yuzasidan og'zaki konsultatsiya (10 daqiqadan ortiqmas). Murojaat uchun telefon raqami: (71) 203-80-26.

Telefon orqali: 9-00 dan 18-00 gacha xizmat bo'yicha har qanday katta xajmdagi aniq axborot berilishini talab qilmaydigan savol yuzasidan og'zaki konsultatsiya (5 daqiqadan ortiqmas). Murojaat uchun telefon raqami: (71) 203-80-26.

Elektron pochta orqali: onlayn rejimda info@stat.uz elektron pochtasiga yozma so'rovlarni keng tarqalgan matn formatlarida (oddiy matn, biriktirilgan fayl DOC, RTF, PDF) yoki kelishilgan boshqa formatlarda qabul qilish, 9-00 dan 18-00 gacha yozma hujjatlarni oddiy matn formatida, biriktirilgan fayl DOC, RTF, PDF formatida yoki kelishilgan boshqa formatlarda uzatish.

Statistika agentligi rasmiy saytiga shaxsiy murojaat – onlayn rejimda.

2.4. Xizmat ko'rsatish joyi haqida xabardor qilish

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Mirzo-Ulug'bek tumani, 100192, Mustaqillik shoh ko'chasi 63.

2.5. Foydalilaniladigan hujjatlar blanklari (shakllar)

Tasdiqlangan va o'rnatilgan tartibdagi onlayn jadval namunasi.

3. Xizmat ko'rsatish

3.1. Ish vaqtি

Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytiga murojaat;

Ish tartibi: onlayn rejimda.

3.2. Kutish shartlari

Xizmat onlayn rejimda ko'rsatiladi.

4. Xizmat ko'rsatish tartibi

4.1. Shart bo'lgan hujjatlar

Talab etilmaydi.

4.2. Xizmat haqi

Xizmat bepul amalga oshiriladi.

4.3. Interaktiv xizmatining ko'rsatilish bosqichlari

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlarining o'sish sur'atlari haqida axborot olish uchun, www.stat.uz saytiga kirish lozim. Saytning yuqori qismidagi "O'zbekiston raqamlarda" bo'limini tanlash kerak.

4.4. Interaktiv xizmatini ko'rsatishda idoraviy ichki tartiblar

1. Har chorak va yil asosida statistika tarmoqlari bo'yicha yakunlarni tashkil etish;
2. Hisobot davri uchun asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni shakllantirish;
3. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlarini o'sish sur'atlarini Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida e'lon qilish.

4.5. Rad etish asosi

O'rnatilmagan.

5. Sifat ta'minoti

5.1. Sifat parametrlari

Xizmat ko'rsatish sifati taqdim etilayotgan xizmatlar uchun o'rnatilgan tartibga muvofiq.

5.2. Sifatsiz xizmatga shikoyat

Shikoyat, o'rnatilgan tartibda statistika organlariga yozma murojaat orqali yoki Statistika agentligining rasmiy saytidagi qayta aloqa shakli orqali amalga oshiriladi.

5.3.Statistika ma'lumotlarini taqdim etish bo'yicha interaktiv xizmatini ko'rsatish sxemasi

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Murojaatchi <i>(yuridik yoki jismoniy shaxs)</i>	Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytiga bevosita murojaat etadi.	O'z xohishiga ko'ra
2-bosqich	Statistika agentligi	O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlarini o'sish sur'atlarini agentlik saytinig "O'zbekiston raqamlarda" bo'limida yangilab boradi.	Doimiy
3-bosqich	Murojaatchi	Statistika agentligi saytida "O'zbekiston raqamlarda" bo'limida qiziqtirayotgan statistika sohasini tanlaydi	O'z xohishiga ko'ra
4-bosqich	Murojaatchi	Tanlangan statistika sohasi bo'yicha o'sish sur'atlari to'g'risidagi statistika ko'rsatkichlaridan onlayn rejimda foydalanadi.	Real vaqt rejimida